



## O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA JINS KATEGIRIYASINING GRAMMATIK QURILISHI

**Abdiloyev Shavkatjon Oxonjonovich**

FarDU, chet tili fakulteti o'qituvchisi

**Soliyev Rahimjon Ibrohimovich**

FarDU, chet tili fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada hozirda xorijiy tillarni o'rganishning muhimligi, xorijiy tillarni o'rganishda grammatikaning o'ziga xos ahamiyat kasb etishi, nemis va o'zbek tillarida grammatik jins kategoriyasi, grammatik jins kategoriyasining har ikki tilda o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jins kategoriyasi, jins tushunchasi, erkak jinsi, neter jins, grammatik vosita, biologik jins, affiks, artikl.

**Аннотация:** В статье рассматриваются важность изучения иностранных языков, значение грамматики при изучении иностранных языков, категория грамматического рода в немецком и узбекском языках, особенности категории грамматического рода в обоих языках.

**Ключевые слова:** родовая категория, родовое понятие, мужской род, женский род, средний род, грамматическое средство, биологический род, аффикс, artikel.

**Abstract:** The article discusses the importance of learning foreign languages, the importance of grammar in the study of foreign languages, the grammatical gender category in German and Uzbek, the peculiarities of the grammatical gender category in both languages.

**Keywords:** gender category, gender concept, masculine gender, feminine gender, neuter gender, grammatical tool, biological gender, affix, article.

Bugungi kunda chet tillarini mukammal egallash zamon talabi ekanligini barchamiz guvohimiz, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Xorijiy tillarni o'rganish va puxta egallash ta'limgagi dolzarb masala bo'lgan bir paytda tilning har bir qirralarini mukammal egallab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, tilning grammatik tomonini ham mukammal egallash bundan mustasno emasdir. Nemis tilini o'rganishda o'zbek talabalarini ba'zi bir



qiyinchiliklarga duch kelish xolatlari mavjudki, ularni o‘zbek tili bilan qiyoslamay o‘zlashtirish qiyinchilik tug‘diradi. Xuddi shunday nomutanosibliklardan biri nemis tilidagi rod va artikl tushunchasidir.

Zamonaviy Xind–yevropa tillarining ko‘pchiligini tashkil qiluvchi aksar qismida rod kategoriyasi mavjud, deb yozadi professor Arakin V. D. Bu kategoriya otlarining o‘ziga tobe bo‘lgan sifat va olmosh kabi so‘zlarning grammatik ma’nolarini o‘ziga moslashtira olish xususiyatida namoyon bo‘ladi.

Bir so‘z turli tillarda turli grammatik jinsga kirishi mumkin, masalan, rus tilidagi лошадь so‘zi jenskiy rodga, nemis tilidagi shu ma’nodagi das Pferd so‘zi esa sredniy rodga, fransuz tilidagi le cheval so‘zi mujskoy rodga kiradi. Rus tilidagi девочка и женщина so‘zlarining jenskiy rodga kirishi tabiiy, lekin shu ma’nodagi nemischa das Weib, das Mädchen so‘zlarining sredniy rodga kirishi tushunib bo‘lmaydigan holdir. Ushbu kategorianing ana shu xususiyatlarini nazarda tutib, ba’zi olimlar grammatik jinsn «sirli» kategoriya deb atashsa, ba’zilari uni «tilning o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan qoldiqlari” deb tushuntirishadi.

Grammatik jins kategoriyasi tarixan o‘zgaruvchan kategoriyadir. Bir vaqtlar rus tilidagi атом so‘zi jenskiy rodga kiritilib atoma deb yuritilar edi, молекула so‘zi esa avval mujskoy rod—ga mansub bo‘lib, molekul deb yuritilar edi va hokazo.

Nemis olimlarining fikricha, odamlar dunyodagi hamma kuchli, ulkan narsa va hodisalarini mujskoy rodga, go‘zal, nozik narsalarni esa jenskiy rodga kiritishgan. Qo‘lda yasalgan narsalarni esa sredniy rod deb bilishgan, misol tariqasida tog’ va gul so‘zlarini ko‘rsatishgan:

der Berg — mujskoy rod; die Blume — jenskiy rod

Lekin bu fikrga qo‘silib bo‘lmaydi. Birinchidan, nemis tilidagi ko‘p otlar bunday ramkalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bu fikrga amal qilinadigan bo‘lsa, yuqorida keltirilgan qiz (das Mädchen) va ayol (das Weib) so‘zları nemis tilida sredniy rodga emas, balki jenskiy rodga kirishi kerak edi. Ikkinchidan rus tilidagi gopa so‘zi nemis tilidagidek mujskoy rodga kirmaydi, aksincha, u jenskiy rodga mansub, цветок so‘zi esa mujskoy rodga to‘g‘ri keladi. Grammatik jins kategoriyasining paydo bo‘lishini bunday taxminlar bilan asoslab bo‘lmaydi.

Grammatik jins kategoriyasi tilning grammatik qurilishi bilan bog‘liq. Gapda so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirishuvi, buning usullari va vositalarini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq holda grammatik jins kategoriyasi ilmiy tushuncha sifatida paydo bo‘lgan.

O‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yo‘q. Lekin bundan o‘zbek tilida jins tushunchasi ifoda qilinmaydi degan fikr kelib chiqmaydi. O‘zbek tilida ham bu



tushuncha ifoda qilinadi. Lekin bu tushunchani ifoda qiluvchi grammatik vositalar deyarli yo‘q. O‘zbek tilida jins tushunchasi ko‘proq leksik-semantik usul bilan ifodalanadi. Shunda ham faqat odam va hayvonlarning biologik jinsini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.

o‘g‘il — qiz

ota — ona

tog‘a — xola leksik-semantik usul

O‘zbek tiliga arab tilidan kirib qolgan -a affiksi ham shu maqsad uchun xizmat qiladi. Lekin bu kammahsuldir.

Nozim— Nozima

Olim- Olima morfologik usul

Nemis tilida esa bundan farqli o‘larоq rod tushunchasi mavjud bo‘lib, ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar ikki xil artikl, ya’ni aniq va noaniq artikllar orqali turli rodлага kiritiladi. Artikllar esa asosan otlarning jinsiga va ularning qo‘shimchalariga tegishli holda belgilanadi.

Grammatik materialni grammatik strukturalar tarkibida o‘rgatish tamoyili nutq vaziyatlariga mos keluvchi, talabaning kundalik turmush sharoitida eng ko‘p ishlataladigan nutq namunalarini o‘zlashtirib olishni ko‘zda tutadi.

Grammatik materialni ona tili materiali bilan qiyoslab, ongli o‘zlashtirish tamoyilida esa ona tilidan egallangan grammatik ko‘nikma va malakalarning nemis tili grammatik materialini o‘rganishga ijobiy ta’siri namoyon bo‘ladi.

Grammatik materialni differensiyalashtirib o‘rgatish, o‘rganilishi qiyin til materialini talabalarning o‘zlashtirish darajalariga moslashtirib, turlicha taqdimot o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Chet tili (nemis) o‘rgatish metodikasining grammatikaga doir vazifalaritalabalar nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentlarini tashkil qiluvchi grammatik amallarni o‘rgatishni eng qulay yo‘llarini topishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umarxo’jaev M.E. Nemis tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon 2010.
2. Chernischewa I.I., Stepanowa M.D. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. M., 1975. S 268.
3. Mirsoatov T.Z. Nemis tili grammatikasi. O‘qituvchi, Toshkent 1980
4. Arssenjewa M. G. Grammatik der deutschen Sprache, M. , 1963.
5. Ibrokhimovich, S. R., & Mamatojievich, M. A. (2021). TECHNIQUES FOR CREATIVE WRITING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(12), 493-496.
6. Ibrokhimovich, S. R., & Yusupovich, I. V. (2021). Professional



Communication in the Pedagogical Activity of a Teacher. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 264-268.

7. Yusupovich, I. V., Pirnazarovich, R. R., & Mamatojiyevich, M. A. (2022). Using Social Forms in German Language Lessons its Benefits. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 724-726.

8. Ibroximovich, S. R. (2022). SATIRA JANRINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 245-251.

9. Ibroximovich, S. R., & Yusupovich, I. V. (2022). Satire as a Literary Genre. International Journal of Formal Education, 1(11), 9-16.

10. Adxamjonovich, M. R., & Ibroximovich, S. R. (2022). Lexico-Thematic and Linguoculturological Characteristics of the Concept Teacher. International Journal of Formal Education, 1(10), 106-110.

11. ЗООНИМ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЎХШАШ ВА ФАРҚЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. IQRO JURNALI, 3(1), 156-159.

12. Абдилоев, Ш. О. (2023). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР—ХАЛҚ ҲАЁТИНИНГ ИНЬИКОСИ. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 1(2), 157-159.

13. Абдилоев, Ш. О. (2023). АЙРИМ УЙ ҲАЙВОНЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ТУРЛИ ХАЛҚЛАРДА МАҶНО ИФОДАЛАНИШИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 122-128.

14. Oxonjonovich, A. S. (2023). Peculiarities of Semantics of Phraseological Units with Zoonyms. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 17, 98-102.

15. Oxonjonovich, A. S. (2022). GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A ZOONYM COMPONENT. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 239-244.

